
Farg'ona shahrida navbatdagi press-tur va matbuot anjumani o'tkazildi

Bugun ommaviy axborot vositalari xodimlari, jurnalistlar, boshqarmalarning axborot xizmati rahbarlari hamda blogerlar uchun Farg'ona shahriga Press-tur uyushtirildi.

Press-tur ishtirokchilari uchun dastlab Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov va sektor rahbarlari ishtirokida matbuot anjumani tashkillandi. Shahar hokimligining faollar zalida o'tkazilgan matbuot anjumanida hududlarda jinoyatchilikni oldini olish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar berildi. Jurnalist va blogerlar tomonidan mavzuga oid berilgan savollarga sektor rahbarlari tomonidan javoblar berildi. Shaharda jinoyatchilikni oldini olish bo'yicha bildirilgan takliflar ham o'rganib chiqildi. Matbuot anjumani davomida 27 iyun - Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan tadbir ishtirokchilari qutlandi. Yurtimizda, ayniqsa Farg'ona shahrida olib borilayotgan islohotlar natijasi hamda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni keng jamoatchilikka yetkazishda faol bo'lgan jurnalist va blogerlar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari shahar hokimligining tashakkurnomasi, esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar. Bir maqsad va hamkorlikda faoliyat olib borayotgan soha vakillari uchun bayram tadbiri ham o'tkazildi.

Jurnalist va blogerlar shu kuni Farg'ona shahridagi 70 gektar maydonda bunyod etilayotgan eko-shaharga ham tashrif buyurishdi.

Farg'ona shahridagi "Eko shahar" hududida uy-joylar qurilishi, obodonlashtirish ishlari, muhandislik kommunikatsiya tarmoqlarini tortish va "Yangi O'zbekiston bog'i" qurilishi uchun 6 trln. 131 mlrd.so'm mablag' sarflanadi.

Eko shaharda 204 ta 21 660 xonadonli (85,5 ming aholi) ko'p qavatli uy-joylar qurilishi belgilangan. Yangi massivda 10 ta bog'cha, 6 ta umumta'lim maktabi, poliklinika, masjid hamda sog'lomlashtirish majmuasi bunyod etiladi. 15 ta ma'muriy idoralar qad rostlaydi, "Kichik sanoat zonasi"da esa 17 ta lotlar ajratiladi.

"Yangi O'zbekiston bog'i" qurilishi uchun - 60 mlrd.so'm ajratiladi. Shuningdek, "Yapon mehmonxonasi", "Yapon bog'i" va "Savdo majmuasi" ham tub aholi hamda mehmonlar uchun shart-sharoitlar yaratish uchun qurilmoqda.

Hozirda hududda keng ko'lamlı obodonlashtirish, qurilish va ta'mirlash ishlari jadal sur'atlarda davom etmoqda. Press-tur davomida ishtirokchilarga mutaxassislar tomonidan to'liq ma'lumotlar berildi.

Bugungi matbuot tadbirlarida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga Farg'ona shahridan saylangan deputat, jurnalist Umidjon Jabborov ham ishtirok etdi.

2022-06-27 10:49:47